

ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH

*“Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi” mutaxassisleri*

*Luqmonov Sharifxon A‘zam o‘g‘li,  
Akbarov Jasur Ikromjon o‘g‘li*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, hozirgi zamon iqtisodiyotida, mamlakatimizda raqobatni kuchaytirish va monopoliyaga qarshi boshqaruvni rivojlantirishning masalalari haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiyotda raqobat, raqobatbardoshlik, iqtisodiyotning sohalari, bozor munosabatlari, monopoliya.

**Abstract:** This article analyzes the issues of strengthening competition and development of anti-monopoly management in the modern economy in our country.

**Key words:** competition in the economy, competitiveness, sectors of the economy, market relations, monopoly.

**Аннотация:** В данной статье анализируются вопросы усиления конкуренции и развития антимонопольного управления в современной экономике нашей страны.

**Ключевые слова:** конкуренция в экономике, конкурентоспособность, отрасли экономики, рыночные отношения, монополия.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida raqobatning eng muhim ko‘rinishining asosiysi tovarlarni narxi bo‘lganligi sababli, narxlarni erkin qo‘yish raqobatli muhitni vujudga keltirishi barchamizga ma‘lum. Bugungi kunda global miqyosda bozor iqtisodiyotiga o‘tish, aholining daromadlar miqdoriga emas, balki uning daromaddan qay darajada, qay tarzda foydalanish imkoni borligi bilan o‘lchanmoqda, sababi shundaki, har qanday iqtisodiy sohalarda daromadlarning aylanish sikli inson omiliga bog‘liq ekani ma‘lum.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda doimo aniq rejalar asosida ish ko‘rilishi lozim, bu to‘g‘risida mamlakatimizda olib borilayotgan tashviqotlar o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirishda monopoliyaga qarshi boshqaruvni amalga oshirish eng to‘g‘ri uslublardan biri hisoblanadi, sababi xorijiy olimlarning fikricha ham raqobatbardosh bo‘lishning eng muhim bosqichi bu monopoliyaga qarshi boshqaruv uslubi ekanligi ta‘kidlangan. Bizning yurtimizda yaqin yillargacha monopoliya juda keng qamrovli edi, jahon bozoriga chiqishda o‘lkamizda ishlab chiqilgan juda ko‘plab mahsulot raqobatbardosh emas edi, ammo hozirda yurtimizda chet el mahsulotlari kirishi bilanoq, tadbirkorlarimiz o‘z mahsulotlarini sifati ustida ko‘plab tajribalarni amalga oshirishni ham boshladilar.

Mahsulot narxlarining erkin qo'yilishi tartibi albatta tovarning sifatiga bog'liq. Zamonaviy iqtisodiyotda tovarlarga narx qo'yishda ham o'z boshimchalikga yo'l qo'yilmaydi, aholi turmushidan kelib chiqqan holda narxlar belgilanadi va bu amallar, qoidalar shunchaki qog'ozda qolib ketmasligi, amalga oshirilishi va ijro etilishi lozim.

Har qanday islohotlar mustahkam huquqiy va empirik asosga ega bo'lishi kerak va albatta normativ harakatlar ham qonun ustuvorligiga mustahkam asoslanishi kerak. Albatta, har qanday regulyator tegishli vakolatga ega bo'lishi shart. Bundan tashqari, oldingi qoidalar mavjud huquqiy majburiyatlarga aniqlik va mutanosiblik kabi keng tarqalgan qonunchilik tamoyillariga mos kelishi kerak. Qoidalar ham empirik tahlil va isbotga asoslangan bo'lishi kerak. Bu, ayniqsa, bozor tuzilishi haqidagi an'anaviy tushunchalar qo'llanilmasligi mumkin bo'lgan, zarar va foyda o'rtasidagi chegara ko'proq rivojlangan tarmoqlardagi kabi hisobga olinmagan yangi va rivojlanayotgan texnologiya sohalarida juda muhimdir. Empirik dalil har doim ma'lumotni iloji boricha obyektiv ravishda taroziga solib, har bir holatga xos faktlarga asoslanishi kerak. Yangi tartibga solish islohotlari uchun empirik asosni to'g'ri qo'ymaslik uning qonuniyligini va va'da qilingan imtiyozlarni berish qobiliyatini buzadi. Har bir islohot foydali bo'lishi lozim. Mutasaddilar har bir monopoliyani tartibga solish bo'yicha takliflarning umumiy kutilayotgan xarajatlari va foydalarini diqqat bilan ko'rib chiqishlari kerak. Iloji bo'lsa, bu taklif qilinayotgan tartibga solishning mumkin bo'lgan ta'sirini va miqdorini aniqlash uchun manfaatdor tomonlar va jamoatchilik vakillari bilan maslahatlashishni o'z ichiga olishi kerak. Bu tartibga solish sifatini va muvofiqlikni yaxshilashi mumkin, shu bilan birga yakuniy ijro xarajatlarini kamaytiradi.

Har qanday qonun yoki islohot raqobatchilarni emas, raqobat muhitini qo'llab-quvvatlashi lozim. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirayotganda, yuqoridagi faktorlarni hisobga olish lozim. Shuningdek, xorijiy davlatlarda raqobat muhitini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni kuzatib borish, tahlil qilish va uni iqtisodiyotimizga moslashtirish orqali ham yurtimizdagi iqtisodiy muhitni yanada yaxshilash mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joiz, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar negizida yurtimizning yuksak taraqqiyoti va xalqimizning farovon hayoti kabi ustuvor vazifalar o'rin olgan.

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash keraki, hozirgi davrda O'zbekistonda, agar korxonalar ishlab chiqargan muayyan mahsulotlar tovarlar bozoridagi shunday mahsulotning 40% dan ortiq bo'lsa, bu korxonalar ustun mavqega korxonalar deb e'tirof etiladi. Respublikada ustun mavqega ega korxonalar ro'yxatiga kirgan korxonalar (tarmoq)larning bozordagi mavqeini tartibga solishda bir qator usullardan:

- a) monopol mavqeidagi mahsulotlarga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellik chegarasini belgilab qo'yish;
- b) o'z monopol mavqeini suiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib

tashlash yoki maydalashtirish usullaridan foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi (1996-yil 26-aprel) qonuni asosida insofsiz raqobatga, shu jumladan, bozorlarga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarning kirishiga yo'l qo'ymaydigan mexanizmni yaratishga ham alohida e'tibor berilgan. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida" qonuni (2023-yil 3-iyul) ustun mavqega korxonadan hukmronlik mavqeini suiste'mol qilishning oldini olish, monopoliyadan chiqarish va sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadlarini ko'zlaydi. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida raqobat muhitini shakllantirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xodiyev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. va boshqalar O'zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarida. T.: TDIU.
2. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizastiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. T.: TDIU.
3. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni. - T.: TDIU.
4. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: Moliya.
5. <https://www.lex.uz/>